O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING JIZZAX
VILOYATI BOSHQARMASI

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel/Faks: 71-203-11-09, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Safarov Bobir Sabirjanovich
Sana: 29-08-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

215053 - SONLI

Obyekt nomi: Farg’ona viloyati Qo’qon shahar “G’ishtli masjid” MFY Qo’qon sadosi ro’znomasi ko’chasi 26a uyda bir dona uch qavatli (birinchi qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish qolgan qavatlari turar-joy) xamda ikki dona besh qavatli va bir dona yeti qavatli mansardli turar joy binolari qurish.	
Buyurtmachi:	ARTEON MCHJ
Bosh loyihachi:	"FARG`ONA SANOAT QURILISH LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender tanlovi asosida.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	020760

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasining 06.05.2024-yilda Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o’z hududida qo’shimcha bino va inshootlarni qurish uchun berilgan 1730405-173191-sonli ruxsatnoma.

1.2. Buyurtmachi tashkilot "ARTEON" MCHJ tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan “Loyiha topshirig’i”.

1.3. Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasining 23.05.2024-yildagi 1730-1730405-187428-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.4. Buyurtmachi tashkilot "ARTEON" MCHJ va loyiha tashkiloti "FARG`ONA SANOAT QURILISH LOYIHA" MCHJ o'rtasida loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun tuzilgan shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Buyurtmachi tashkilot "ARTEON" MCHJ ning “Shaffof qurilish” MAT orqali 13.07.2024-yildagi №020760-sonli murojaati.

2.2. Loyihani ishlab chiqish bosqichidagi loyihaviy xujjatlar.

2.3. Arxitektura va qurilish yechimlari.

2.4. Tarmoq muhandisligi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. **Bosh reja.**

Qo‘qon shahar “G‘ishtli masjid” MFY Qo‘qon sadosi ro‘znomasi ko‘chasi 26a-uyda bir dona uch qavatli (birinchi qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish qolgan qavatlari turar-joy) xamda ikki dona besh qavatli va bir dona yetti qavatli mansardali turar joy binolari qurish bosh rejasi (GP) bo‘limi Farg‘ona viloyati qurilish va uy joy komunal xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan berilgan 23.05.2024-yildagi, 1730-1730405-187428-sonli ART 1:500 masshtabdagi topografik xaritada, barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda bajarilgan.

Qurilish maydoning chegaralari:

- shimoldan - aholi turar-joy binosi bilan;
- sharqdan - mahalliy kirish yuli bilan;
- janubdan - aholi turar-joy binosi bilan;
- g‘arbdan - aholi turar-joy binosi bilan.

Bosh reja ishchi loyihasida quyidagi bino va inshootlar hamda ish turlari aks etgan:

Hududda qurilayotgan yangi binolar tarkibi:

- 7 qavatli turar-joy binosi;
- 3 qavatli (1-qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binosi) turar-joy binosi;
- 5 qavatli turar-joy binosi (2ta);
- Bolalar o‘yingoxi maydoni;
- 85 o‘rinli avtoturargox;
- Transformator o‘rnatish uchun joy;
- Maishiy chiqindi tashlash joyi.

Hudud obodonlashtirildi, yo‘llar va piyodalar o‘tish yo‘llari qattiq sirtga va sun’iy yorug‘likka ega. Qurilish maydonining vertikal rejasi binolarni mavjud relefga nisbatan to‘g‘ri joydashtirish, yashil maydonlarni, sug‘orish imkoniyatini, shuningdek, chiqindilarni va yomgir va qor suvlarini hudud yuzasidan olib chiqilishini ta’minlaydi. Yo‘llar, piyodalar yo‘llari tagida qum va shag‘al ustki kismida beton qoplamasi bilan ta’minlangan. Shuningdek hudud ko‘p yillik manzarali daraxtlar va yashil maysalar bilan ko‘kalamzorlashtiriladi.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida hududda quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilgan:

- Asosiy binoning burchak qismida yong‘inga qarshi joylashtirilgan;
- O‘t o‘chirish mashinalarining barcha binolar oldiga bora olishi yo‘llar bilan ta’minlangan.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

Umumiy maydon - 15600,0 m2;
Qurilish maydoni - 5106,5 m2;
Yo‘l va yo‘laklar maydoni(mavjud qoplamalar bilan birgalikda) - 6221,9 m2;
Ko‘kalamzor maydon - 4170,0 m2.

3.2. **Qurilish maydoning xususiyatlari**.

- Qurilish va iqlim zonasi – II;
- Tashqi havoning taxminiy qishki harorati – 14 g S;
- Shamolning standart bosimi – 0,38 kPa;
- Standart qor yuki – 0,50 kPa;
- Tuproq sharoitini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi – 9 ball.

3.2. **Loyihaning "Arxitekturaviy va Konstruktiv yechimlari" qismi.**

3 qavatli turar joy majmuasi.

Arxitekturaviy yechimlar:

3 qavatli turar joy binosi rejada to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 12,0x30,0m ni tashkil qiladi. Turar joy binosi 3 qavatli, yerto'lali, 2 yo'lakli, bo'lib xonalar balandligi poldan shiftgacha 1-2-3-qavatlarda h=3,0m ni, yerto'lada esa h=3,0m ni tashkil qiladi.

Qavatlarda xonadonlar joylashuvi:
Yerto'lada savdo do’konlari, zinapoya kletkalari joylashtirilgan.
1-qavatda savdo do’konlari, zinapoya kletkalari joylashgan.
2-3-qavatlarda zinapoya kletkasi, yo'lak, mexmonxona, oshxona, yotoqxon, san.uzellar joylashtirilgan.
Xonadonlar soni:
3 xonali xonadonlar - 8 ta;
Jami xonadonlar soni - 8 ta.
Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar:
Qurilish maydoni - 482,9m2;
Umumiy maydon - 653,2m2;
Foydali maydon - 3267,89m2;
Yashash maydoni - 189,0m2;
Qurilish hajmi - 6042,1m3.

Konstruktiv yechimlar:

Poydevor – tasmali va ustunli quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Poydevorlar setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Yerto'la devorlari - qalinligi 400mm bo'lgan yig’ma temir-beton FBS bloklaridan.
Tashqi devorlar - qalinligi 380mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar temir-beton o'zaklar va gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan. Devorlar tashqi tarafdan issiq saqlovchi material (bazalt tolali) bilan qoplangan.
Ustunlar – monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. Ustunlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Tos’inlar – o’lchami 400x400mm bo’lgan monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. To’sinlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
O’zaklar (serdechnik) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. O’zaklar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Pardevorlar (peregorodka) - qalinligi 120mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Pardevorlar gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Zinapoya - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Zinapoya setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Sarrovlar (peremichka) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Sarrovlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Orayopma va tomyopma - g'ovakli yig'ma temir beton plitalar.
Tom - chordoqli. Konvert shaklda qalinligi 0,51mm bo'lgan polimer qoplamali prof.listlar bilan yopilgan.

5 qavatli turar joy majmuasi.
Arxitekturaviy yechimlar:
5 qavatli turar joy binosi rejada to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 14,0x42,0m ni tashkil qiladi. Turar joy binosi 5 qavatli, yerto'lali, 2 yo'lakli, bo'lib xonalar balandligi poldan shiftgacha 1-2-3-4-5-qavatlarda h=3,0m ni, yerto'lada ham h=3,0m ni tashkil qiladi.
Qavatlarda xonadonlar joylashuvi:
Yerto'lada zinapoya kletkasi, yo'lak, mexmonxona, oshxona, yotoqxon, san.uzellar joylashtirilgan.

1-2-3-4-5-qavatlarda zinapoya kletkasi, yo'lak, mexmonxona, oshxona, yotoqxon, san.uzellar joylashtirilgan.

Xonadonlar soni:

3 xonali xonadonlar - 10 ta;
4 xonali xonadonlar – 10 ta;
Jami xonadonlar soni - 20 ta.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Qurilish maydoni - 590,0m2;
Umumiy maydon - 2947,3m2;
Foydali maydon - 2725,9m2;
Yashash maydoni - 1621,2m2;
Qurilish hajmi - 12095,0m3.

Konstruktiv yechimlar:

Poydevor – qalinligi 500mm bo’lgan quyma monolit temir-beton plita. Beton sinfi B20. Poydevorlar setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Yerto'la devorlari - qalinligi 400mm bo'lgan yig’ma temir-beton FBS bloklaridan.
Tashqi devorlar - qalinligi 380mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar temir-beton o'zaklar va gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan. Devorlar tashqi tarafdan issiq saqlovchi material (bazalt tolali) bilan qoplangan.
Ustunlar – monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. Ustunlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Tos’inlar – o’lchami 400x400mm bo’lgan monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. To’sinlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
O’zaklar (serdechnik) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. O’zaklar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Pardevorlar (peregorodka) - qalinligi 120mm bo’lgan yengil gazobloklardan.
Zinapoya - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Zinapoya setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Sarrovlar (peremichka) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Sarrovlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Orayopma va tomyopma - g'ovakli yig'ma temir beton plitalar.
Tom - chordoqli. Konvert shaklda qalinligi 0,51mm bo'lgan polimer qoplamali prof.listlar bilan yopilgan.

7 qavatli turar joy majmuasi.

Arxitekturaviy yechimlar:

7 qavatli turar joy binosi rejada “Г” simon shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 31,6x44,8m ni tashkil qiladi. Turar joy binosi 7 qavatli, yerto'lali, 2 yo'lakli, bo'lib xonalar balandligi poldan shiftgacha 1-2-3-4-5-6-7-qavatlarda h=3,0m ni, yerto'lada ham h=3,0m ni tashkil qiladi.

Qavatlarda xonadonlar joylashuvi:

Yerto'lada zinapoya kletkasi, texnik xonalar.
1-2-3-4-5-6-7-qavatlarda zinapoya kletkasi, lift shaxtasi, yo'lak, mexmonxona, oshxona, yotoqxon, san.uzellar joylashtirilgan.

Xonadonlar soni:

2 xonali xonadonlar – 21 ta;
3 xonali xonadonlar - 28 ta;
4 xonali xonadonlar – 7 ta;

Jami xonadonlar soni - 56 ta.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Qurilish maydoni - 914,6m2;
Umumiy maydon - 7171,4m2;
Foydali maydon - 5998,0m2;
Yashash maydoni - 4274,7m2;
Qurilish hajmi - 21950,6m3.

Konstruktiv yechimlar:

Poydevor – qalinligi 600mm bo’lgan quyma monolit temir-beton plita. Beton sinfi B20.
Poydevorlar setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Yerto'la devorlari - qalinligi 400mm bo'lgan quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15.
Devorlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Tashqi devorlar - qalinligi 380mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar temir-beton o'zaklar va gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan. Devorlar tashqi tarafdan issiq saqlovchi material (bazalt tolali) bilan qoplangan.
Ustunlar – o’lchami 400x400mm, 500x500mm bo’lib monolit temir-betondan. Beton sinfi B25.
Ustunlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Tos’inlar – o’lchami 400x400mm, 400x500mm(h) bo’lgan monolit temir-betondan. Beton sinfi B25. To’sinlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
O’zaklar (serdechnik) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. O’zaklar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Pardevorlar (peregorodka) - qalinligi 120mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Pardevorlar gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Zinapoya - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Zinapoya setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Sarrovlar (peremichka) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Sarrovlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Orayopma va tomyopma - g'ovakli yig'ma temir beton plitalar.
Tom - chordoqli. Konvert shaklda qalinligi 0,51mm bo'lgan polimer qoplamali prof.listlar bilan yopilgan.

3.4. <u>Energiya samaradorligi va muqobil energiyadan foydalanish.</u>

Loyihada energiya samaradorligi va muqobil energiyadan foydalanish bo'yicha quyidagi ishlar ko'zda tutilgan:
Bino fasadi issiq saqlovchi material bilan qoplangan;
Tomning chordoq qismida issiq saqlovchi material qo'llanilgan;
Yerto’lada polida issiq saqlovchi material qo'llanilgan;
Deraza romlarida steklopaket qurilmasi ko'zda tutilgan;
Bino tomida quyosh panellarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. **<u>Elektr ta’minoti.</u>**

3 qavatli turar joy majmuasi:

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida VRU1-23-56 UXL4 olingan. Ximoya aparatlari uchun VA47 markali avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral tarmoqlar uchun AVVGng-0,66 kV, tarqatuvchi tarmoqlar uchun PV,PPV,VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmloqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida himoyalangan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo’llanilgan. Binoning tom qismiga quvvati

500 Vt umumiy quvvati 10kvt bo‘lgan jami 20 ta quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 10 kVt bo‘lgan invertor o‘rnatilgan.

5 qavatli turar joy majmuasi:

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida VRU1-22-53 UXL4 olingan. Ximoya aparatlari uchun VA47 markali avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral tarmoqlar uchun AVVGng-0,66 kV, tarqatuvchi tarmoqlar uchun PV,PPV,VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmloqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar kullanilgan. Binoning tom qismiga quvvati 250 Vt umumiy quvvati 10kvt bo‘lgan jami 40 ta quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 10 kVt bo‘lgan tnvertor o‘rnatilgan.

7 qavatli turar joy majmuasi:

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida VRU1-22-53 UXL4 olingan. Ximoya aparatlari uchun VA47 markali avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral tarmoqlar uchun AVVGng-0,66 kV, tarqatuvchi tarmoqlar uchun PV,PPV,VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmloqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo‘llanilgan. Binoning tom qismiga quvvati 500 Vt umumiy quvvati 15kvt bo‘lgan jami 30 ta quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 15 kVt bo‘lgan invertor o‘rnatilgan.

4.2. **Suv ta’minoti va oqova suv tarmog’i.**

3 qavatli turar joy majmuasi:

Ichimlik suvi ta'minoti tizimining ichki tarmoqlari D20,25,32, mm polipropilen quvurlardan tayyorlanadi. Quvurlardagi standart suv bosimiga erishish uchun har bir blokning texnik podvaliga 2 ta nasosli (1 ta ishchi, 1 ta zaxira) suv bosimini oshirish uchun nasos agregatlari joylashtirilgan. Har bir xonadonda suv iste'molini hisobga olish uchun loyiha suv hisoblagichlarini o'rnatishni ko’zda tutilgan. Issiq suv ta'minoti 80l elektr suv isitgichilaridan va 150 l/kun quvvatli quyosh suv isitgichlaridan avtonom hisoblanadi. Quyosh suv isitgichlari binoning tomiga o'rnatilgan va janubga yo'naltirilgan. Issiq suv ta'minoti quvurlari D20mm polipropilen quvurlardan loyihalangan. Chiqish va ichki kanalizatsiya tarmoqlari GOST 22689-89 bo'yicha 50-100mm plastik quvurlardan loyihalangan.

5 qavatli turar joy majmuasi:

Ichimlik suvi ta'minoti tizimining ichki tarmoqlari D20,25,32,40 mm polipropilen quvurlardan tayyorlanadi. Quvurlardagi standart suv bosimiga erishish uchun har bir blokning texnik podvaliga 2 ta nasosli (1 ta ishchi, 1 ta zaxira) suv bosimini oshirish uchun nasos agregatlari joylashtirilgan. Har bir xonadonda suv iste'molini hisobga olish uchun loyiha suv hisoblagichlarini o'rnatishni ko’zda tutilgan. Issiq suv ta'minoti 80l elektr suv isitgichilaridan va 150 l/kun quvvatli quyosh suv isitgichlaridan avtonom hisoblanadi. Quyosh suv isitgichlari binoning tomiga o'rnatilgan va janubga yo'naltirilgan. Issiq suv ta'minoti quvurlari D20mm polipropilen quvurlardan loyihalangan. Chiqish va ichki kanalizatsiya tarmoqlari GOST 22689-89 bo'yicha 50-100 mm plastik quvurlardan loyihalangan.

7 qavatli turar joy majmuasi:

Ichimlik suvi ta'minoti tizimining ichki tarmoqlari D20,25,32,40 mm polipropilen quvurlardan tayyorlanadi. Quvurlardagi standart suv bosimiga erishish uchun har bir blokning texnik podvaliga 2 ta nasosli (1 ta ishchi, 1 ta zaxira) suv bosimini oshirish uchun nasos agregatlari joylashtirilgan. Har bir xonadonda suv iste'molini hisobga olish uchun loyiha suv hisoblagichlarini o'rnatishni ko’zda tutilgan. Issiq suv ta'minoti 80l elektr suv isitgichilaridan vai quyosh suv isitgichlaridan avtonom hisoblanadi. Quyosh suv isitgichlari binoning tomiga o'rnatilgan va janubga yo'naltirilgan. Issiq suv ta'minoti quvurlari D20. mm folga bilan polipropilen quvurlardan loyihalangan. Chiqish va ichki kanalizatsiya tarmoqlari GOST 22689-89 bo'yicha 50-100 mm plastik quvurlardan tayyorlangan.

4.3. **Isitish va shamollatish tizimi.**

3 qavatli turar joy majmuasi:

Issiqlik manbayi devorga o‘rnatiladigan ikki konturli gaz ta’minotli istish qozoni. Asosiy yoqilgi turi gaz. Istish qozonlari soni 8 dona. Istish qozonlarining quvvati 14kVt Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 56.96kVt. Isitish tizimi ikki quvurli boshi berk gorizontal bo‘lib pol ichiga yotqizilgan. Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR PN25 turdagi quvurlardan loyihalangan. Isitish jihozlari bimetal radiator. Bir dona radiator qovkug‘asining quvvati 178kVt. Bino honalarida devor tirqishlari, tik havo quvurlari orqali tabiy shamollatish tizimi va osevoy ventilyatorlar orqali mehanik shamollatish tizimi ko‘zda tutilgan. Bino honalarida kamfort iqlim yaratish maqsadida split tizim loyihalangan.

5 qavatli turar joy majmuasi:

Issiqlik manbayi devorga o‘rnatiladigan ikki konturli gaz ta’minotli istish qozoni. Asosiy yoqilgi turi gaz. Istish qozonlari soni 28 dona. Istish qozonlarining quvvati 14kVt. Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 214.49kVt. Isitish tizimi ikki quvurli boshi berk gorizontal bo‘lib pol ichiga yotqizilgan. Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR PN25 turdagi quvurlardan loyihalangan. Isitish jihozlari bimetal radiator. Bir dona radiator qovurg‘asining quvvati 178kVt. Bino honalarida devor tirqishlari, tik havo quvurlari orqali tabiy shamollatish tizimi va osevoy ventilyatorlar orqali mehanik shamollatish tizimi ko‘zda tutilgan.

7 qavatli turar joy majmuasi:

Issiqlik manbayi devorga o‘rnatiladigan ikki konturli gaz ta’minotli istish qozoni. Asosiy yoqilgi turi gaz.Istish qozonlari soni 56 dona. Istish qozonlarining quvvati 14kVt .Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 441.26kVt. Isitish tizimi ikki quvurli boshi berk gorizontal bo‘lib pol ichiga yotqizilgan. Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR PN25 turdagi quvurlardan loyihalangan. Isitish jihozlari bimetal radiator. Bir dona radiator qovurg‘asining quvvati 178kVt. Bino honalarida devor tirqishlari, tik havo quvurlari orqali tabiy shamollatish tizimi va osevoy ventilyatorlar orqali mehanik shamollatish tizimi ko‘zda tutilgan.

4.4. **Yong'inga qarshi chora-tadbirlar.**

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – 2.

Binoning funksional yong'in xavfi sinfi – F1.3

Loyihada quyidagilar ko'zda tutilgan:

- Evakuatsiya yo'llarida devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan ishlangan.
- Binoda yong’in sodir bo’lganda xabar berish qurilmasi ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Farg’ona viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi qoshidagi Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 30.05.2024-yildagi №128305093-sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Farg’ona viloyati filiali tomonidan 29.03.2024-yilda berilgan 01-02/12-225 tartib raqamli ijobiy Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi va Davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyiha hujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Buyurtmachi tashkilot **"ARTEON" MCHJ 14.08.2024-yildagi №117-sonli xatiga** binoan qurilish-montaj ishlari buyurtmachining o’z mablag’lari hisobidan qurilayotganligi sababli smeta xujjatlari ekspertiza tomonidan ko’rilmadi.

Ta'kidlash joizki:

***Berilgan yig'ma ekspert xulosasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021-yildagi №579-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 1.1, 1.5 va 1.6 bandlarini inobatga olgan holda tayyorlangan va "ARTEON" MCHJ qurilish ishlarini o'z hisobidan bajarayotganligi sababli to'g'ridan to'g'ri bank kreditlari olish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi.**

Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi: – pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

– "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

– ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

6.3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi).

6.5. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29- bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda “**Farg’ona viloyati Qo’qon shahar "G'ishtli masjid" MFY Qo’qon sadosi ro’znomasi ko’chasi 26a uyda bir dona uch qavatli (birinchi qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish qolgan qavatlari turar-joy) xamda ikki dona besh qavatli va bir dona yeti qavatli mansardli turar joy binolari qurish”** loyiha hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Djurayev Anvar Lapasovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Abduramanov Nazim Xxx, Maxmudov Bobir Inatulla O‘g‘li, Turayev Shoxrux Ilxomovich, Ayubov Rustam Xamitovich, Ubaydullayev Nizomjon Ne’matulla O‘g‘li, Amonov Javoxir Muxammadjon O‘g‘li